

RAQAMLI O‘ZBEKISTON – KORRUPSIYADAN XOLI HUDUD

Imomaliyeva Mohizoda Rasuljon qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida muhokama etilgan masalalar tahlil qilingan bo‘lib, unda korrupsiogen holatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashning samarali mexanizmlari bayon qilinadi. Jumladan, raqamli texnologiyalarning davlat hokimiyati tizimida keng joriy qilinishi va buning natijasida inson omilining kamayishi istiqbolda korrupsiyaga qarshi kurashning eng ta’sirchan choralaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, xavfsizlik, raqamlashtirish, inson omili, elektron hukumat, davlat xizmatlari

I.KIRISH

Biz yashayotgan davr raqamli texnologiyalar asri sifatida tarix zarvaraqlarida muxrlanib borayotganligi bilan ajralib turibdi. Qaysi sohani olib qaramang raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan kechayotganligiga tobora guvoh bo‘lmoqdamiz. Zero, postindustrial jamiyat tamadduniga xos belgilar jonajon O‘zbekistonimiz uchun ham jadal sur‘atlarda ko‘zga tashlanayotgani yurtimizning ertangi kuni bundanda porloq bo‘lishidan dalolatdir. Biroq yurtimiz taraqqiyoti uchun shunday to‘siqlar ham borki, ularni bartaraf etmasdan turib, rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish mushkullashadi. Korrupsiya ana shunday ulkan to‘siq bo‘lib, uni har bir davrning, har bir davlatning va har bir jamiyatning “taraqqiyot kushandasi” sifatida tan olinishi bejiz emas. Quyida korrupsiyaning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi salbiy oqibatlari va uni bartaraf etishda raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida so‘z yuritamiz.

II.ADABIYOTLAR TAHLILI

Korrupsiya va uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy oqibatlari haqida bir qator tadqiqotlar o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori Geri Bekker 1968 yilda chop etilgan “Jinoyat va jazo: Iqtisodiy yondashuv” nomli maqolasida jinoyatchilikni iqtisodiy model sifatida tahlil qilgan¹¹⁸. Uning fikricha, jinoyatchilar oddiy iqtisodiy agentlar singari, o‘z manfaatlarini maksimal darajada oshirishga harakat qiladi. Ular jinoyat sodir etish yoki qilmaslik haqidagi qarorlarini ehtimoliy foyda va xarajatlarni tahlil qilish orqali qabul qilishadi. Bekker jinoyatchilarni ratsional agentlar deb hisoblaydi. Ya’ni ular jinoyatdan oladigan manfaat bilan jazoga tortilish ehtimoli va jazoning og‘irligini solishtirib qaror qabul qiladilar.

Iqtisodchi Larisa Burakova 2012-yilda Gruziya misolida katta tadqiqot o‘tkazgan. Uning “Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi” nomli kitobida Gruziya tajribasi boshqa postsovet o‘lkalaridagi holat bilan taqqoslanadi va muvaffaqiyati Mixail Saakashvilining siyosiy irodasi hamda davlat hokimiyati tizimini

¹¹⁸ Bekker G. “Jinoyat va jazo: Iqtisodiy yondashuv”. 1968.

demokratlashtirish ekanligi haqida asosli dalillar keltiriladi. Jumladan, ushbu kitobda Gruziya korrupsiyaga qarshi kurash kengashi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlagan Vato Lejavaning quyidagi o‘rinli fikri keltiriladi: *“Agarda davlat xizmatchisining maoshi 20 dollar bo‘lsa, korrupsiyaga qarshi kurashishni qanday qilib unga ishonib topshirish mumkin? Yaxshisi bu xodimning o‘zi ham, bu kabi vazifa ham bo‘lmagani ma‘qul. Ya‘ni xodimlar sonini kamaytirish, ularning maoshlarini bir necha marta oshirish va hatto nazariy jihatdan ham keraksiz bo‘lgan bu kabi vazifalarga barham berish kerak”*¹¹⁹.

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sanjar Hamroyev esa korrupsiyani milliy davlatchilik suverenitetiga asosiy tahdid sifatida baholaydi va uni quyidagicha ifodalaydi: *“Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga, milliy davlat suverenitetiga xavf soluvchi tahdid hisoblanadi va mamlakatda ijtimoiy larza, iqtisodiy tanglikning vujudga kelishiga sabab bo‘lib, aholining ma‘naviy kayfiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi”*¹²⁰.

III.NATIJARLAR

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab bir trillion AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar u yoki bu ko‘rinishda korrupsiya tufayli isrof qilinadi. Korrupsiya mamlakat boyligining kamayishiga va turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Korrupsiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri duch kelmasak ham, uning ta‘sirini doimo his qilamiz. Jumladan quyidagi ko‘rinishlarda:

Birinchidan, korrupsiyalashgan tizim tadbirkorlik subyektlariga aralashib ularning muvaffaqiyatli rivojlana olinishiga halaqit beradi. Natija esa mamlakat umumiy boyligining qisqarishiga olib keladi;

Ikkinchidan, hukumat ishchilarga to‘lashi va ijtimoiy ta‘minotga: kitoblar, dori-darmonlar, kompyuterlar va boshqalarga sarflashi kerak bo‘lgan pul miqdorini kamaytirishga olib keladi;

Uchinchidan, davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlar (maktab, shifoxona, yo‘l, kanalizatsiya, militsiya va boshqalar) ko‘rsatish uchun ajratilayotgan pul mablag‘laridan maqsadli foydalanilmayotganiga olib keladi, bu esa xizmatlar sifatini yomonlashtiradi;

To‘rtinchidan, puli va vakolati bor shaxslar qonun hamda davlat organlarining normativ hujjatlarini o‘z manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgartirishi uchun sharoit yaratadi;

Va nihoyat, eng muhimi davlat hokimiyatiga, hukumatga ishonchni susaytiradi.

Tadqiqotga ko‘ra, davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashganida uzoq muddatda davlat daromadlari to‘rt baravar ko‘payadi. Korrupsiyani kamaytirish orqali biznes uch foizga tezroq o‘sishi va bolalar o‘limi darajasi 75 foizga kamayishi mumkin ekan¹²¹.

¹¹⁹ Буракова Л. Грузия муваффақиятга қандай эришди? – Т.: Нихол, 2021. – Б.328.

¹²⁰ Hamroyev S.S. Globallashuvning milliy davlat suverenitetiga tahdidlari va ularni bartaraf etish omillari // Samievich, Khamroev Sanjar. “Threats to National State Sovereignty”. American Journal of Social and Humanitarian Research 2.5 (2021): 89-98.

¹²¹ Jahon bankining hisoboti. 25.10.2024. Publication: World Bank Annual Report 2024

IV.MUHOKAMA

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilayotganligini e‘tirof etishimiz kerak. Jumladan, 2017-yil 3-yanvardan “O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirdi va unda korrupsiyaga quyidagicha ta‘rif berildi: **“korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”¹²². Bu esa bir qator shu kabi huquqbuzarliklarni malakalanishida yanada aniqlik kiritish imkonini taqdim qildi. Bundan tashqari 2024-yil 5-iyunda “O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ham qabul qilinib, unga ko‘ra: **“manfaatlar to‘qnashuvi** — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat”¹²³, deya talqin qilindi. Ushbu qonun yordamida shaxsiy manfaatdorlik, yaqin qarindoshlar kabi tushunchalarga ham aniqlik kiritilgani turli korrupsiogen holatlarning oldini olish imkonini berdi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, 2020-yilning 29-iyunida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Unga ko‘ra, Agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi ekani belgilanib, bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari (parlament) oldida hisobdorligi qayd etildi. Shuningdek, Agentlikning asosiy maqsad va vazifalariga: mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta‘minlash; korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarni aniqlash; korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni amalga oshirish; fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish; vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonlari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplayens-nazorat)ni joriy etish; davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash; korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari

¹²² “O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. 03.01.2017

¹²³ “O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni. 05.06.2024

hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish; korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash va boshqalar kiritildi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun esa Agentlikka bir qator huquq hamda vakolatlar berildi: korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O‘zbekistonning milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qilish; byudjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilish, olish va o‘rganish; jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ma‘muriy surishtiruvlar o‘tkazish; ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish.

Biroq, amalga oshirilgan bir qator amaliy choralarga qaramasdan O‘zbekiston korrupsiyani qabul qilish indeksida havas qilargulik o‘rinda emasligi hali bu borada qilinadigan ishlar ancha ekanligini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti davlatlarning korrupsiyaga moyilligi indeksini tuzishda muhim tuzilma sanaladi. 2024-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index)ga ko‘ra, O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 121-o‘rinni egalladi. 100 balli indeks bo‘yicha (0 — korrupsiya darajasi o‘ta yuqori, 100 — o‘ta past) O‘zbekiston 32 ball to‘pladi (bir yil avval — 33 ball) va Angola, Ekvador, Keniya, Shri-Lanka hamda Togo bilan bir o‘rinda qayd etildi. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2024-yil uchun indeksdagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda va 100 balldan 35 ballni tashkil etadi. “Turli mamlakatlarda demokratik institutlarning zaifligi va qonun ustuvorligining zaiflashishi davom etayotgan beqarorlik va tashqi bosim fonida yanada kuchaymoqda. Bu korrupsiyaning gullab-yashnashi uchun qulay muhit yaratadi, shuningdek jamoatchilik ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi”¹²⁴, - deyiladi Transparency International hisoboti sharhida. Shunday ekan O‘zbekiston oldida ushbu illatga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida yangicha samarali yondashuvlarni joriy qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Bu borada, avvalo, davlat rahbarining qat‘iyati muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etib, yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilinayotgan ishlarga baho berar ekan, jumladan, mamlakatimizda yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechib, auksion tizimiga o‘tkazilgani, davlat xaridlari bo‘yicha

¹²⁴ Transparency International xalqaro nodavlat tashkilotining 2024-yil uchun hisoboti. The 2024 Corruption Perceptions Index (CPI).

qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m budget mablag‘i tejalgani, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani, oliy ta‘lim tizimi ham raqamlashtirilgani, 35 turdagi hujjatlarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaygani, yo‘l harakati xavfsizligi inspektori “bodi-kamera”da xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog‘ozdagi bayonnoma yo‘q bo‘lgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaygani, aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilib, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilingani, elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetgani va ulardan foydalanuvchilar esa, 11 milliondan oshganligi alohida qayd etib o‘tildi.

Biroq korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan yuqoridagi kabi chora-tadbirlarga qaramasdan hali qilinadigan ishlar ko‘p ekanligi e‘tirof etilib, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

Birinchidan, davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuziladi. Ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlari ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratiladi. Bunda, davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi shartligi belgilanib, ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi;

Ikkinchidan, budget va budgetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar ham kuchaytirilishi belgilanadi. Davlat idoralarining xaridlarida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan transport va mebelga ustuvorlik berish zarurligi qayd etildi. Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash talabi qo‘yildi;

Uchinchidan, korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanishi qayd etilib, ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi;

To‘rtinchidan, davlat xizmatchilari daromadini deklaratsiyalashga oid qonun zarurati qayd etilib, uning loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi belgilandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan: *“Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san‘at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”*¹²⁵, ekanligi alohida ta‘kidlandi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, korrupsiya holatlarini o‘rishining quyidagi sabablarini keltirib o‘tish ham maqsadga muvofiq:

¹²⁵ Mirziyoyev Sh.M. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutq. 05.03.2025

Birinchi dan, korrupsiyaga imkoniyat mavjudligi. Ya'ni tizim samarasiz bo'lsa, odamlar korrupsiyaga moyil bo'lib, mavjud tartib va qonunlarni hisobga olmasdan o'z maqsadlariga erishishning turli noqonuniy yo'lini topa boshlaydilar;

Ikkinchi dan, korrupsiyaga qarshi kurash yoki oldini olish ta'sir choralari ning pastligi. Bu, avvalo, mansabdorlarda mas'uliyatning yo'qligi, birinchi navbatda, shaffoflikning yo'qligi (masalan, davlat idoralari xodimlari nima qilayotgani, buni qanday amalga oshirayotgani va nima uchun qilayotgani haqida ma'lumot bermasligi, o'z xatti-harakatlarini tushuntirmasligi) va huquqni muhofaza qilish organlarining zaifligi (huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'z vazifalarini suiiste'mol qilganlik uchun vakolatli shaxslarni javobgarlikka tortmasligi) bilan bog'liq;

Uchinchi dan, yomon rag'bat. Masalan, amaldor ro'zg'origa yetmaydigan darajada kam maosh olsa yoki ertangi kunga ishonchi yo'qolsa, daromadini pora bilan to'ldiradi;

To'rtinchi dan, muayyan vaziyat va sharoitlarda oddiy odamlar qonunni hurmat qilishni to'xtatganligi. Ular o'zlari noqonuniy deb hisoblagan hukumat qonunlarini chetlab o'tishga harakat qiladilar. Qashshoqlik yoki resurslarning yetishmasligi (masalan, dori-darmon) odamlarning qonunlarga bo'ysunmasligiga olib kelishi mumkin.

Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda jazolarning qattiqligidan ko'ra, ularning muqarrarligi muhimroq. Jazo qanchalik og'ir bo'lmasin, jazolanish ehtimolligi past bo'laversa, korrupsiya va shu kabi jinoyatlarning oldini olish imkonsiz bo'lib qolaveradi.

V.XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar sog'liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko'plab sohalarda sun'iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. Price water house Coopers (PwC) konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, global sun'iy aql 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 milliard trillion AQSH dollarimiqdorida hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu jahon yalpi ichki mahsulotini 26 foizga o'sishiga olib keladi. Shu bois Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq barcha sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan samarali tizimlaridan biridir. Shubhasiz, bu kabi zamonaviy texnologiyalar davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, korrupsiyadan xoli hududni yaratishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

VI.ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. 03.01.2017

2. “O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni. 05.06.2024
3. Mirziyoyev Sh.M. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutq. 05.03.2025
4. Bekker G. “Jinoyat va jazo: Iqtisodiy yondashuv”. 1968.
5. Burakova L. Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi? – T.: Nihol, 2021. – B.328.
6. Hamroyev S.S. Globallashuvning milliy davlat suverenitetiga tahdidlari va ularni bartaraf etish omillari // Samievich, Khamroev Sanjar. “Threats to National State Sovereignty”. American Journal of Social and Humanitarian Research 2.5 (2021): 89-98.
7. Jahon bankining hisoboti. Publication: World Bank Annual Report. 25.10.2024.
8. Transparency International xalqaro nodavlat tashkilotining 2024-yil uchun hisoboti. The 2024 Corruption Perceptions Index (CPI).